

DEVIANT XULQLI TALABALAR QADRIYAT YO'NALISHLARINI KORREKSIYALASHDA TRENINGLARDAN FOYDALANISH

Omirbayeva Gulsanem Jalgasbay qizi

Qoraqalpoq davlat universiteti "Pedagogika va psixologiya" kafedrası magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20126353>

Annotatsiya. Ushbu maqolada deviant xulq-atvor tushunchasi, uning talaba shaxsida namoyon bo'lish xususiyatlari hamda shunday xulq-atvorga ega talabalarning qadriyat yo'nalishlarini korreksiyalashda treninglarning ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, trening mashg'ulotlarining turlari, samaradorligi, pedagogik va psixologik jihatlari muhokama etilgan. Tadqiqotda deviant xulq-atvorning psixologik mohiyati, uning yuzaga kelishiga sabab bo'luvchi omillar, yoshlar ongida qadriyatlar tizimining shakllanish mexanizmlari va ijtimoiy muhitning ta'siri batafsil o'rganilgan. Maqolada psixologik trening orqali talabalardagi tajovuzkorlik, befarqlik, ijtimoiy moslashuv muammolari, salbiy qadriyatlarga moyillik va ziddiyatli xulq-atvorni kamaytirish usullari ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari deviant xulq-atvorli talabalar bilan ishlashda kompleks psixologik-pedagogik yondashuvlarni qo'llash zarurligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Deviant xulq, qadriyat yo'nalishlari, psixologik tadqiqot, ta'lim jarayonlari, pedagogik yondashuvlar, psixologik trening, korreksiya, psixologik ta'sir, psixologik-pedagogik usullar.

USING TRAINING TO CORRECT THE VALUE ORIENTATIONS OF STUDENTS WITH DEVIANT BEHAVIOR

Abstract. This article analyzes the concept of deviant behavior, the features of its manifestation in a student's personality, and the importance of training in correcting the value orientations of students exhibiting such behavior. Additionally, the types of training sessions, their effectiveness, and their pedagogical and psychological aspects are discussed. The study provides a detailed examination of the psychological essence of deviant behavior, the factors contributing to its emergence, the mechanisms for the formation of a value system in the minds of young people, and the influence of the social environment. The article considers methods for reducing aggression, apathy, social adaptation problems, a tendency toward negative values, and conflict behavior in students through psychological training. The research findings indicate the necessity of applying comprehensive psychological and pedagogical approaches when working with students with deviant behavior.

Keywords: Deviant behavior, value orientations, psychological research, educational processes, pedagogical approaches, psychological training, correction, psychological influence, psychological and pedagogical methods.

КОРРЕКЦИЯ ЦЕННОСТНЫХ ОРИЕНТАЦИЙ УЧАЩИХСЯ С ДЕВИАНТНЫМ ПОВЕДЕНИЕМ ПОСРЕДСТВОМ ТРЕНИНГА

Аннотация. В данной статье анализируется понятие девиантного поведения, особенности его проявления в личности учащегося, а также роль тренингов в коррекции ценностных ориентаций школьников с таким поведением. Также обсуждаются виды тренинговых занятий, их эффективность, педагогические и психологические аспекты. В исследовании подробно изучены психологическая сущность девиантного поведения, факторы, способствующие его возникновению, механизмы формирования системы ценностей в сознании молодежи и влияние социальной среды. В статье рассматриваются методы снижения агрессивности, апатии, проблем социальной адаптации, склонности к негативным ценностям и конфликтного поведения у учащихся

через психологический тренинг. Результаты исследования указывают на необходимость применения комплексных психолого-педагогических подходов в работе с учащимися, демонстрирующими девиантное поведение.

Ключевые слова: Девиантное поведение, ценностные ориентации, психологическое исследование, образовательный процесс, педагогические подходы, психологический тренинг, коррекция, психологическое воздействие, психолого-педагогические методы.

KIRISH

Deviant xulq-atvorning buzilishi tushunchasi – bu jamiyatimizda qabul qilingan ijtimoiy me'yorlardan kelib chiqqan holatda va qadriyatlardan chetga chiquvchi xatti-harakatlar majmuasidan kelib chiqadi. Oliy ta'lim muassasalarida talabalarining ijtimoiy-psixologik moslashuvi, fanlarni to'liq o'zlashtirishi va kelajakdagi kasbiy faoliyatiga yo'nalishi misolida bu tushunchani muhokamarlar asosida ko'rsatib o'tamiz. Talabalik yillari shaxsning dunyoqarashi, qadriyatlari va ijtimoiy mavqei shakllanadigan nihoyatda muhim bosqichdir. Bu davrda yoshlarning ruhiy mustaqillikka intilishi, hissiy beqarorligi hamda atrof-muhit ta'siriga o'ta beriluvchanligi turli deviant holatlarning yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin. Shu bois deviant xulq-atvorli talabalar bilan ishlashda nafaqat nazorat va jazo mexanizmlaridan, balki psixologik-pedagogik korreksiya usullaridan ham foydalanish lozim.

Qadriyatli yo'nalishlar insonning hayotiy maqsadlari, axloqiy qarashlari va ijtimoiy faoliyatini belgilab beruvchi muhim psixologik tizim sanaladi. Agar shaxsda salbiy yoki noto'g'ri qadriyatlar shakllansa, bu uning xulq-atvorida turli og'ishlarni keltirib chiqaradi. Shu munosabat bilan, talabalarda sog'lom qadriyatlar tizimini shakllantirish, ularning ijtimoiy mas'uliyatini rivojlantirish va hissiy barqarorligini ta'minlash eng muhim vazifalardan biridir.

Psixologik treninglar deviant xulq-atvorli talabalar bilan ishlashning samarali vositalaridan biridir. Ushbu treninglar jarayonida talabalar o'z his-tuyg'ularini boshqarishni, muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishni, ziddiyatlarni konstruktiv hal etishni va o'z-o'zini yaxshiroq anglashni o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Bu esa, o'z navbatida, salbiy xulq-atvor ko'rinishlarini kamaytirishga va ijobiy qadriyatlarni singdirishga yordam beradi. Deviant xulq-atvorli talabalarda ko'pincha noto'g'ri qadriyatli yo'nalishlar shakllangan bo'lib, bu ularning shaxsiy rivojlanishiga salbiy ta'sir etadi. Shuning uchun bunday talabalar bilan ishlashda samarali pedagogik va psixologik usullarni qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi.

Deviant xulq-atvorli talabalarining qadriyatli yo'nalishlarini korreksiya qilish muammosi O'zbekiston psixologiyasi va pedagogikasidagi dolzarb tadqiqot yo'nalishlaridan biridir.

Mamlakatimiz olimlari tomonidan shaxs xulq-atvori, uning qadriyatlar tizimi va ijtimoiy moslashuviga bag'ishlangan bir qator ilmiy tadqiqotlar o'tkazilgan. Ijtimoiy me'yorlardan chetga chiquvchi xatti-harakatlar tizimi sifatida deviant xulq-atvor psixologiya, pedagogika va sotsiologiyada eng ko'p o'rganilgan muammolardan hisoblanadi. Bu tushuncha lotincha "deviatio" so'zidan olingan bo'lib, "me'yordan chetga chiqish", "xulq-atvorning o'zgarishi" degan ma'nolarni anglatadi. Deviant xulq-atvor deganda shaxsning jamiyatda qabul qilingan axloqiy, huquqiy va madaniy me'yorlarga mos kelmaydigan harakatlari tushuniladi. Talabalik yillarida deviant xulq-atvorning shakllanishi ko'plab psixologik va ijtimoiy omillar bilan bog'liq.

Yoshlarning hissiy beqarorligi, o'zini namoyon etishga intilishi, tengdoshlar ta'siri va ijtimoiy tazyiq turli salbiy xatti-harakatlarga olib kelishi mumkin.

Deviant xulq-atvor mashg'ulotlarga befarqlik, intizomsizlik, munosabatlardagi ziddiyatlilik, zararli odatlarga moyillik va ijtimoiy yakkalanish kabi shakllarda namoyon bo'ladi.

Psixologik nuqtai nazardan, deviant xulq-atvor shaxsning ichki ziddiyatlari va uning psixologik ehtiyojlarining noto'g'ri qondirilishi bilan izohlanadi. Deviant xulq-atvorning yuzaga kelishida oilaviy muhit hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ota-ona bilan ziddiyatli munosabatlar, nazoratsizlik yoki haddan tashqari qattiqqo'llik yoshlarning ruhiy holatiga salbiy ta'sir etadi.

Natijada talabada ijtimoiy me'yorlarga nisbatan salbiy munosabat shakllanishi mumkin.

Ta'lim muassasasidagi psixologik iqlim ham deviant xulq-atvorning rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Pedagoglarning talabalarga nisbatan adolatsiz munosabati, guruh ichidagi ruhiy tazyiq yoki muloqotdagi muammolar yoshlarda tajovuzkor reaksiyalarni keltirib chiqarishi mumkin. Deviant xulq-atvorga sabab bo'luvchi biologik va individual omillar ham mavjud.

Temperament xususiyatlari, impulsivlik, hissiy beqarorlik va stressga chidamlilikning pastligi ayrim yoshlarni salbiy xatti-harakatlarga moyil qilishi mumkin. Shu bois deviant xulq-atvorni izohlash uchun kompleks yondashuv zarur.

Psixologik treninglar deviant xulq-atvor namoyon etadigan talabalar bilan ishlashning samarali vositasi sanaladi. Bunday treninglar muloqot ko'nikmalarini, hissiy barqarorlikni, empatiyani va ijtimoiy moslashuvni rivojlantirishga yordam beradi.

Jumladan, O'zbekistonda psixologiya fanining rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shgan olimlardan biri M.G. Davletshin shaxsning psixologik xususiyatlari va xulq-atvorining shakllanishida ta'lim muhitining hal qiluvchi rolini alohida ta'kidlaydi. Uning fikricha, talabaning ijtimoiylashuviga pedagogik ta'sirlar to'g'ri tashkil etilmasa, xulq-atvorda og'ishlar yuzaga kelishi mumkin. Shuningdek, E.G'. G'oziyev shaxs psixologiyasini o'rganish jarayonida qadriyatli yo'nalishlar shaxsning motivatsion va ehtiyojlar sohasi bilan bevosita bog'liqligini aniqlagan. U talabalarda qadriyatlar tizimini shakllantirish va mustahkamlashni psixologik korreksiyaning muhim yo'nalishi deb biladi. V.M. Karimovanning tadqiqotlarida esa deviant xulq-atvorning shakllanishida yoshlar xulq-atvoriga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar, xususan, guruh ta'siri va shaxslararo munosabatlarning o'rni keng yoritilgan. Olima shaxsning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish va salbiy xulq-atvorni kamaytirishda trening metodlarining samaradorligini qayd etadi. Bundan tashqari, R.I. Sunnatova va boshqa zamonaviy o'zbek psixologlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar psixologik treninglar talabalarning o'z-o'zini anglashi darajasini oshirishi, hissiy barqarorligini mustahkamlashi va qadriyatlar tizimini ijobiy tomonga o'zgartirishini ilmiy jihatdan isbotlagan.

Qadriyatli yo'nalishlarni shakllantirishda oilaning o'rni beqiyos. Oilada shakllangan axloqiy me'yorlar, milliy qadriyatlar va ijtimoiy munosabatlar yoshlar dunyoqarashiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Mehr va qo'llab-quvvatlash muhitida tarbiya topgan talabalarda odatda ijobiy qadriyatlar rivojlanadi. Qadriyatli yo'nalishlarning rivojlanishida ta'lim tizimi ham muhim rol o'ynaydi. Oliy ta'lim muassasalari nafaqat bilim beradigan maskan, balki ma'naviy-ma'rifiy muhit yaratadigan dargoh sifatida ham faoliyat yuritishi lozim. Pedagoglarning shaxsiy namunasi, tarbiyaviy tadbirlar va jamoaviy ishlar talabalar ongida ijobiy qadriyatlarni mustahkamlaydi. Yoshlarning qadriyatlariga tengdoshlar guruhlari va do'stlik munosabatlari ham kuchli ta'sir ko'rsatadi. Talabalar ko'pincha tengdoshlarining xulq-atvori va qarashlariga moslashishga intiladi. Natijada guruhning salbiy ta'siri deviant qadriyatlarining shakllanishiga olib kelishi mumkin. Axborot texnologiyalari va ommaviy madaniyatning rivojlanishi ham qadriyatlar tizimiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Yoshlar internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali turli madaniy oqimlar bilan tanishadi.

Ayrim hollarda bu jarayon milliy va axloqiy qadriyatlarning yemirilishiga olib kelishi mumkin. Shaxsning qadriyatli yo'nalishlari shakllanishida uning psixologik xususiyatlari ham muhim ahamiyatga ega. Qiziqishlar, ehtiyojlar, temperament va motivatsiya insonning qaysi qadriyatlarga ustuvorlik berishini belgilaydi. Talabalar o'rtasida sog'lom qadriyatlarni shakllantirish uchun ma'naviy-ma'rifiy ishlarni kuchaytirish zarur. Yoshlar ongiga milliy an'analar, insonparvarlik, vatanparvarlik va ijtimoiy mas'uliyat bilan bog'liq qadriyatlarni singdirish ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydi. Qadriyatli yo'nalishlarni korreksiya qilishda kompleks yondashuv katta ahamiyat kasb etadi. Oila muhiti, pedagogik ta'sir, psixologik yordam va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash birgalikda, muvofiqlashtirilgan holda amalga oshirilgandagina samarali natija beradi.

Deviant xulq-atvorli talabalar bilan ishlashda trening mashg'ulotlaridan foydalanish korreksion faoliyatning eng samarali shakllaridan biridir. Bu treninglar orqali yoshlarning ijtimoiy ko'nikmalari rivojlanadi, hissiy zo'riqish kamayadi va ijobiy qadriyatlar shakllanadi.

Aggressiv xulq-atvorni pasaytirishga qaratilgan treninglar talabalarda o'z hissiyotlarini boshqarish qobiliyatini rivojlantiradi. Bunday mashg'ulotlar davomida ishtirokchilar nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish usullarini o'rganadilar. Kommunikativ treninglar esa muloqot madaniyatini shakllantirishga ko'maklashadi. Deviant xulq-atvorli talabalar ko'pincha atrofdegilar bilan samarali muloqot qura olmaydi. Treninglar davomida ular tinglash, o'z fikrini konstruktiv ifodalash va hamkorlik qilish ko'nikmalarini egallaydilar. Motivatsion treninglar talabalarning ichki resurslarini faollashtiradi. Yoshlar o'z oldiga maqsad qo'yish, muvaffaqiyatga intilish va kelajakdagi rejalari haqida chuqurroq o'ylash imkoniyatiga ega bo'ladi. Psixologik treninglar, shuningdek, ijtimoiy moslashuvni ham yaxshilaydi. Guruh mashg'ulotlarida talabalar jamoada ishlashni va boshqalarning fikrini hurmat qilishni o'rganadilar. Stressni boshqarishga yo'naltirilgan treninglar hissiy barqarorlikni mustahkamlaydi. Talabalar psixologik bosimlarni konstruktiv usullar yordamida yengishni o'rganadilar. Ushbu treninglar natijasida talabalarning o'z-o'zini anglash darajasi yuksaladi va bu ularga o'z salbiy xatti-harakatlarini nazorat qilishga yordam beradi.

Tadqiqotning nazariy metodlari pedagogika, psixologiya va sotsiologiya sohalariga oid ilmiy manbalarni o'rganish, tahlil qilish, umumlashtirish va tizimlashtirishni o'z ichiga oldi.

Xususan, deviant xulq-atvor tushunchasining ilmiy talqinlari, uning yuzaga kelishiga sabab bo'luvchi omillar va talaba-yoshlar orasida namoyon bo'lish xususiyatlari chuqur o'rganildi. Shuningdek, qadriyatli yo'nalishlar, shaxsiy rivojlanish va xulq-atvorni korreksiyalash borasidagi zamonaviy ilmiy qarashlar tahlil qilindi. Tadqiqotning konseptual asosini shakllantirish maqsadida trening texnologiyalarining nazariy asoslari, ularning psixologik-pedagogik salohiyati va tarbiyaviy ta'sir mexanizmlari ham alohida o'rganildi. Bu usullar muammoning ilmiy asosini yaratishga va asosiy tushunchalarga oydinlik kiritishga xizmat qildi. Empirik metodlar sifatida kuzatish, suhbat, so'rovnoma (anketa) va psixologik testlardan foydalanildi. Kuzatish metodi talabalarning kundalik xulq-atvori, ijtimoiy muhitga munosabati va shaxslararo muloqot jarayonlarini o'rganish uchun qo'llanildi. Suhbat metodi esa ularning qadriyatlar tizimi, shaxsiy qarashlari va xulq-atvor motivlarini chuqurroq aniqlash imkonini berdi. So'rovnoma (anketa) metodi orqali qisqa vaqt ichida katta guruh talabalaridan tizimli ma'lumotlar to'plandi va ularning qadriyatli yo'nalganlik darajasi tahlil qilindi. Shaxsning hissiy holati, ijtimoiy moslashuvi va deviant xulq-atvorga moyilligini baholash uchun psixologik testlar qo'llanildi. Deviant xulq-atvorli talabalar bilan ishlashda pedagog va psixologlarning hamkorligi o'ta muhim.

O'qituvchilar talabaning kundalik faoliyatini kuzatib, uning xulq-atvoridagi o'zgarishlarni aniqlaydilar. Psixologlar esa diagnostika, maslahat berish va treninglar orqali talabalarning psixologik muammolarini hal etishga yordam beradilar. Individual yondashuv deviant xulq-atvorning asl sabablarini chuqurroq anglash imkonini beradi. Pedagoglarning ijobiy munosabati va qo'llab-quvvatlashi talabalar uchun rag'batlantiruvchi omil bo'lib xizmat qiladi.

Aksincha, tanqid va jazoga asoslangan yondashuv salbiy reaksiyalarni yanada kuchaytirishi mumkin. Psixologik profilaktika ishlari ham muhim ahamiyatga ega. Talabalar bilan muntazam ravishda trening va suhbatlar o'tkazish orqali salbiy xulq-atvor shakllarining oldini olish mumkin. Tajriba va nazorat guruhlarining natijalari o'zaro taqqoslanib, treninglarning talabalarning qadriyatli yo'nalishlariga ta'siri aniqlandi. Olingan natijalarni qayta ishlashda sifat va miqdoriy tahlil usullaridan foydalanildi. Miqdoriy tahlil orqali statistik ko'rsatkichlar, foizlar va o'zgarish dinamikasi aniqlangan bo'lsa, sifat tahlili yordamida xulq-atvordagi o'zgarishlar, qadriyatlar tizimidagi siljishlar hamda talabalarning psixologik holatidagi o'zgarishlar sharhlandi. Bu yondashuv tadqiqot natijalarining ishonchliligi va ilmiy asoslilikini oshirdi. Deviant xulq-atvorli talabalarning qadriyatli yo'nalishlariga tuzatish kiritish zamonaviy ta'lim tizimining eng dolzarb vazifalaridan biri sanaladi. Yoshlar o'rtasida salbiy xulq-atvorning oldini olish, ularda ijtimoiy mas'uliyat va sog'lom qadriyatlarni shakllantirish ijtimoiy barqarorlikning muhim omili hisoblanadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, deviant xulq-atvorga moyil talabalarning qadriyat yo'nalishlarida muayyan buzilishlar kuzatiladi va bu ularning ijtimoiy moslashuviga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Treninglar talabalarning o'zini anglashi, ijobiy xulq-atvor modellarini shakllantirishi va qadriyatlarini qayta ko'rib chiqishiga samarali ta'sir etadi. Guruhli treninglar, psixologik mashqlar va kommunikativ o'yinlar vositasida talabalarda o'z xatti-harakatini tahlil qilish hamda konstruktiv qarorlar qabul qilish ko'nikmalari rivojlanadi. Oliy ta'lim muassasalarida psixologik xizmat faoliyatini kuchaytirish, muntazam treninglar tashkil etish va innovatsion pedagogik-psixologik metodlardan foydalanish deviant xulq-atvorning oldini olishda muhim o'rin tutadi.

Talabalarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularni ma'naviy qadriyatlarga yo'naltirish va sog'lom psixologik muhit yaratish orqali barkamol shaxsni shakllantirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Vist, Natalya V. "Psychological and Pedagogical Conditions for the Prevention of Deviant Behavior among Adolescents." *International Journal of Environmental and Science Education* 11.15 (2016): 8536-8551.
2. Tashcheva, A. I., S. V. Gridneva, and M. R. Arpentieva. "Value-motivational sphere of the deviant students and academics counseling in higher schools." *Scientific Journal of Pedagogy and Economics* 6 (2020): 283-290.
3. Mukhtarova, Sh M. "Prevention of deviations by means of forming social behavior of students." *Bulletin of the Karaganda University Pedagogy series* 11830.2 (2025): 126-139.
4. Králik, Roman. "The influence of family and school in shaping the values of children and young people in the theory of free time and pedagogy." *The Journal of Education, Culture, and Society* 14.1 (2023): 249-268.

5. Rizhkov, Aleksandr Aleksandrovich. "Key Aspects of a Safe Lifestyle for Adolescents with Deviant Behavior." MODERN EDUCATION Учредители: Даниленко Василий Иванович 2 (2024): 15-28.
6. Akers, Ronald L., and Wesley G. Jennings. "The social learning theory of crime and deviance." Handbook on crime and deviance. Cham: Springer International Publishing, 2019. 113-129.